



TERGOV SUDYALARI VAKOLATLARINI KENGAYTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Matkarimov Qudrat Qalandarovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza
qiluvchi organlar sho'bası dotsenti,
Yuridik fanlar doktori (DSc)

E-mail: matkarimovkudrat79@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19088320>

ARTICLE INFO

Received: 1st March 2026

Accepted: 5th March 2026

Published: 18th March 2026

KEYWORDS

Tergov sudyasi, tergov sudyalari vakolatlari, sud-tergov amaliyoti, inson huquq va erkinliklari, lavozimidan chetlashtirish, tergov sudyasi instituti, sud-huquq islohotlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Tergov sudyalari vakolatlari kengaytirishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish masalalari. Shuningdek tergov sudyalariga quyidagilar bo'yicha majburlov choralari qo'llash bo'yicha yani, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish, ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish, ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatga qadar uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish, tergov sudyasi institutining joriy qilinishi jinoyat protsessida qonun ustuvorligini ta'minlash

Mamlakatimizda hozirgi kunda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. «Inson qadri uchun», «Davlat – inson uchun» degan ezgu g'oyalarni hayotga tatbiq etish maqsadida sud huquq sohasidagi islohotlar bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Fuqarolarning erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatli oliy qadriyat ekanligi, fuqarolarning sud orqali himoyalanişga bo'lgan huquqlari, odil sudlov tamoyillari, sud davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i ekanligi, sudlarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi, aybsizlik prezumpsiyasi kabi qator fundamental, umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalari o'z aksini topgan.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlarning maqsadi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishning eng muhim kafolati sifatida sud hokimiyatining nufuzini mustahkamlash, sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, ularning demokratik insonparvar huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etishdagi rolini kuchaytirishdan iboratdir.

Shu bilan birga, sud-tergov amaliyoti inson huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlash bo'yicha samarali mexanizmlar to'liq ishga solinmaganligi, shuningdek, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka oid konstitutsiyaviy huquqlarini sud orqali ishonchli ta'minlash choralari kuchaytirish zarurati mavjudligini ko'rsatmoqda.

Tarixan qisqa davr mobaynida inson, uning manfaatları, huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida tub islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, mamlakatimizda "davlat-jamiyat-shaxs" tizimidagi

munosabatlar va ularning huquqiy asoslari “shaxs-jamiat-davlat” tizimi asosida qayta shakllantirildi va barcha jabhalarda mazkur muvozanatga asoslangan holda inson manfaatlari birinchi darajaga ko'tarildi. Jumladan, O'zbekiston Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekani mustahkamlab qo'yilgan. Davlat manfaati yoki davlat mulkining hukmronligi belgilab qo'yilmagan. Davlat, avvalo, inson manfaati, uning huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun xizmat qilishi lozim. Boshqacha aytganda, hayotimizning barcha sohalarida demokratlashtirish hamda erkinlashtirish yo'lidagi islohotlar negizida inson huquqi va erkinliklarining puxta himoyasini ta'minlash, sud-huquq tizimini liberallashtirishga qaratilgan ezgu maqsad mujassam¹.

Respublikamizda izchillik bilan amalga oshirilgan islohotlar natijasida 2001 va 2017- yillarda umumiy yurisdiksiya sudlari ixtisoslashtirildi, 2008- yildan qamoqqa olish, 2012- yildan shaxsni lavozimdan chetlashtirish va tibbiy muassasaga joylashtirish, 2017- yildan pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va murdani ekskumatsiya qilish uchun sanksiya berish huquqi sudlarning vakolatiga o'tkazildi, 2016 yildan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini, shu jumladan jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilindi², 2017- yildan qamoq tariqasidagi jinoiy jazo tugatildi, jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga qisqartirildi, qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyot choralarini qo'llashning, shuningdek dastlabki tergovning eng ko'p muddati 1 yildan 7 oyga qisqartirildi, sud tomonidan jinoyat ishini qo'shimcha tergov yuritishga qaytarish instituti bekor qilindi³. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari qariyb 25 yil oldin qabul qilingan bo'lib, o'tgan davrda jamiyatdagi munosabatlar, odamlarning yashash tarzi, ongi, dunyoqarashi o'zgardi⁴.

So'nggi yillarda mamlakatimizda shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida taraflarning tortishuv tamoyili qo'llanilishini yanada kengaytirish hamda ushbu sohada xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani joriy etishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi.⁵

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 24- iyuldagi “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarlar to'g'risidagi” PF-6034-son Farmonida sud-huquq sohasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yuksaltirish, ishlarni sudda ko'rish sifatini oshirish hamda xolis, adolatli va qonuniy sud qarorlarini qabul qilish uchun taraflarning tengligi va tortishuvchanligini amalda ta'minlash mexanizmlarini kengaytirildi.”⁶

¹ Hayitov O., Meliboev T. Uy qamog'i ehtiyot chorasini qonuniy asoslari to'g'risida.

// O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi, 2015 yil, 2-son. – Toshkent, 2015. – B. 2.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4848-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 yil, 40-son, 467-modda.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4850-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 yil, 43-son, 497-modda.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi
// www.uza.uz

⁵ Mirziyoyev.Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 iyundagi “Sud tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlarlar to'g'risidagi” farmoni.. – “O'zbekiston”, 2020.

⁶ Mirziyoyev.Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarlar to'g'risidagi” farmoni.. – “O'zbekiston”, 2020.

Islahotlarning davomiyligi sifatida 2023-yil 27- sentabrdagi, Sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston respublikasining jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi (O'RQ-869-sonli) qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra, 2024-yil 1-yanvardan boshlab Huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish natijalariga ko'ra sud ishlarini yuritish jarayoniga yangi institutlar joriy etildi, fuqarolarning huquqlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash maqsadida yarashuv, dastlabki eshituv, mediatsiya, shuningdek sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish kabi institutlar takomillashtirildi.

O'zbekiston — 2030 strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, ishni sudga qadar yuritishda taraflarning tengligi va tortishuvi prinsipini amalda ta'minlash, shuningdek, tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilinishiga erishish maqsad qilib berilgan. 2024 yil 10 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida (PF-89-son) farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish masalasi jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida alohida sudyalari – tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqilishi tartibi joriy etildi va jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida tergov sudyasi lavozimi jo'y etildi. Shuningdek jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida tergov sudyasi tomonidan protsessual qarorlarga berilgan sanksiyalar faqatgina apellyatsiya instansiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan yakka tartibda qayta ko'rib chiqilishi tartibi belgilandi.⁷

Endilikda 2025 yil 1 yanvardan boshlab sud tizimida tergov sudyasi lavozimi joriy qilinib tergov sudyasiga quyidagi jinoyat materiallarini, shu jumladan sanksiyalar va majburlov choralari qo'llash masalasini ko'rib chiqish vakolati berildi, qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash bilan bog'liq iltimosnomalarni ko'rib chiqish, qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish masalalari bilan bog'liq iltimosnomalarni ko'rib chiqish, pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomalarni, murdani eksqumatsiya qilish haqidagi iltimosnoma, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi iltimosnoma, tintuv o'tkazish haqidagi iltimosnoma, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish haqidagi iltimosnoma, mol-mulkni xatlash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish bo'yicha vakolatlarini amalga oshiradi.

Shuningdek tergov sudyalariga quyidagilar bo'yicha majburlov choralari qo'llash bo'yicha ya'ni, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish, ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish, ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatga qadar uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish, prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish bo'yicha vakolatlariga ega.

Jinoyat ishlarini yuritish masalasida turli nuqtai nazarlar mavjud. Xususan, Yu.A.Lyaxov fikriga ko'ra, jinoyat protsessining gumanizmi deganda, fuqarolarni jinoiy tajovuzlardan himoya qilishni va jinoyat sodir etgan shaxslarni axloqan tuzatish mumkinligiga bo'lgan ishonchni tushunish lozim⁸. Boshqa mualliflar inson shaxsining qimmatini e'tirof etish, uning

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida (PF-89-son) farmoni.

⁸ Ляхов Ю.А. Новая уголовно-процессуальная политика. – Ростов, 1992. – С. 25.

sha'ni va qadr-qimmatini, hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni⁹; tushunadilar. Avvalambor, shuni qayd etish lozimki, yuridik fanda "jinoyat protsessi" va "jinoyat ishlarini yuritish" bir-xil tushunchalar, deb qaraladi¹⁰. "Jinoyat protsessi" va "jinoyat ishlarini yuritish" deganda, protsess barcha ishtirokchilarining jinoyat ishlarini qo'zg'atish, tergov qilish, sudda ko'rish va hal etishga qaratilgan, surishtiruv, tergov, prokuratura organlari va sudning hal qiluvchi rolga asoslangan faoliyati tushuniladi.

Shu bilan birga tergov sudyasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari ham belgilab berilgan. Shuningdek ushbu farmonda yuqori sudlarga qonunchilikda belgilangan tartibda tergov sudyasiga yuklatilgan vazifalarning adolatli va xolisona bajarilishi bo'yicha qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlash hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud yo'li bilan samarali himoya qilish vazifalari belgilandi va jinoyat protsessual krdeksining tegishli moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Hulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarning keyingi bosqichi sifatida yurtimizda tergov sudyasi institutining joriy qilinishi jinoyat protsessida qonun ustuvorligini ta'minlashga, fuqarolarning qonuniy manfaatlarni samarali himoya qilinishiga va odil sudlovning ta'minlanishiga, jinoyat protsessini sifatli amalga oshirilishiga va sud-tergov amaliyotida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

INNOVATIVE
ACADEMY

⁹ Епифанов Б.В. Принцип социальной справедливости в уголовном праве. Дисс. ...канд. юрид. наук. – СПб., 1993. – С. 143.

¹⁰ Уголовный процесс: Курс лекций / Под ред. В.И.Рохлина. – СПб., 2001. – С. 7.